



USMON AZIMNING MODERNIZM HAQIDAGI ADABIY-ESTETIK QARASHLARI

Ahmedova Madinabonu ToshDO‘TAU

adabiyotshunoslik: adabiyot nazariyasi 2-kurs magistranti

madinabonu667@gmail.com +998881641215

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida modernizm muammosi Usmon Azimning adabiy-estetik qarashlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoirning adabiy yangilikka munosabati, modernizmning ayrim ijodkorlar tomonidan noto‘g‘ri talqin qilinishi, shuningdek uning shakliy tajribalar va badiiy yetuklikdan yiroqlik bilan tenglashtirilishiga bildirgan tanqidlari yoritiladi. Shuningdek, Usmon Azim adabiy oqimlarni ikkilamchi hodisa sifatida baholab, badiiy qiymatni belgilovchi asosiy mezon sifatida ijodkor iste’dodini ilgari surishi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: modernizm, Usmon Azim, adabiy yangilanish, iste’dod muammosi.

XX asrda G‘arbiy Yevropa va Amerika adabiyotida yuzaga kelgan modernizm adabiy-estetik tafakkurda tub burilish yasagan hodisa sifatida namoyon bo‘ldi. Ushbu yo‘nalish realizmga xos an‘anaviy tasvir usullaridan voz kechib, inson shaxsining ichki olami, ong va ruhiy kechinmalarni ifodalashni ustuvor maqsad qilib qo‘ydi. Modernizm adabiyotda yangi badiiy shakllar, ramziy obrazlar, subyektiv vaqt va makon talqinini yuzaga chiqardi hamda adabiy tafakkurning yangilanishiga turtki berdi. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da “Modernizm (fr. modern - eng yangi



zamonaviy) – XIX asr oxiri – XX asrboshlarida ommalashgan termin, san’at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi. Tabiiyki, adabiyot va san’atda keng tarqalgan mazkur hodisa bo’sh joyda paydo bo’lgan emas, uning kurtaklari avvaldan mavjud edi. Jumladan, ilgariroq vujudgakelgan “san’at vosita emas – maqsad”, “san’at o’zni ifodalash”, “sof san’at” qabilidagi nazariy qarashlar, barokko doirasida sanaluvchi manerizm, gongorizm, presioz adabiyot namoyandalarining ijod amaliyotida modernizmga xos jihatlarni kuzatish mumkin”. [1.176] Adabiyotshunos Qozoqboy Yo’ldoshev esa modernizmni quyigadiday ta’riflaydi: “Modernizm olam hodisalari va odamga munosabat, ulardagi turli-tuman holatlarni izohlash hamda tasvirlashda o’ziga xoslikka intilib, klassik yondashuv yo’sinini inkor etish yo’lidan borgan g’oyat ko’ptarmoqli falsafiy-estetik hodisadir”. [2.247] XX asr g’arb adabiyotida Joys, Kafka, Kamyu kabi ijodkorlarning asarlari modernizmning namunalari sifatida maydonga keldi. O’zbek adabiyotida esa o’tgan asrning 70-80-yillarida modernizmning ayrim xususiyatlari paydo bo’la boshladi. 90-yillardan boshlab esa yosh modern yozuvchi va shoirlar maydonga keldi. Bular orasida Nazar Eshonqul, T. Rustam, A. Qutbiddin, B. Ro’zimuhammad kabi ijodkorlar ijodida modern yo’nalish unsurlari kuzatildi.

Modernizm tushunchasining o’zbek adabiy muhitida qabul qilinishi turli bahs va munozaralarga sabab bo’ldi. Ayrim tadqiqotchilar modernizmni milliy adabiy an’analarga zid hodisa sifatida baholagan bo’lsalar, boshqalar uni adabiyotdagi tabiiy estetik yangilanish jarayoni deb qarashdi. Shuningdek, ayrim ijodkorlar modernizmning asosini shakliy o’zgarishda degan tushuncha bilan mazmundan shaklni ustun qo’yish, mavjud har qanday adabiy an’analardan voz kechib butunlay boshqa uslubda yozish yo’lidan borishdi. Natijada o’zbek adabiyotida adabiyotshunoslar va ijodkorlar tomonidan adabiy-tanqidiy bahs-munozaralar maydonga keldi. Usmon Azimning adabiy-estetik qarashlarida ham shoirning modernizmga bo’lgan munosabati, adabiyotning yangilanishga bo’lgan ehtiyoji,



bugungi modern shoirlarning ijodi, jahon va o'zbek adabiyotida modern yo'nalishda ijod qilgan iste'dodli ijodkor haqida fikr yuritadi. "Albatta, adabiyot rang-barang bo'lishi kerak. Rang-baranglik ruhni charchatmaydi, uni o'stiradi. Adabiyot ham asli mana shu tuman-turli dunyoning aksidir. Bir xillik esa zerikarli. U zavolning - tanazzulning ibtidosidir", [3.76] - deya ta'kidlaydi shoir "So'ngso'zlar" asarida. Shoir nazdida har qanday jabhada tanazzul bo'lmasligi uchun rang-baranglik kerak, xususan, adabiyot ham zavolga yuz tutmasligi uchun adabiyotda ham yangilik, rang-baranglik zarur. Shu nuqtayi nazardan adabiyotda paydo bo'lgan har qanday oqimlar, yangi janrlar aslida adabiyotning yashovchanligini ta'minlashiga urg'u beradi. Adabiy davrlarni tahlil qilgan shoir adabiyotdagi yangilik har doim ham muvaffaqiyatli bo'lmasligini ta'kidlaydi. Bunga misol tariqasida esa bugungi modern adabiyoti vakillarining o'zlarini zo'rlab modernchi shoir ekanligi da'vosiga ishonolmasligini keltiradi. Shoirning nazdicha, bu ishonchsizlikning paydo bo'lishida bu uslubning aybi yo'qligini, negaki adabiyotdagi ma'lum yangilikni Parvadigorning istagi bilan faqatgina katta iste'dodlar bajarishini, bu kabi yangilanishga hech qanday uslubning daxli yo'qligini, yuksak iste'dodli ijodkor bu yangilikni mukammal holatda yetkazib bera olishini ta'kidlaydi. Usmon Azimni nega bugungi kun "modernchi" shoirlarning she'rlaridan ta'sirlanmasligiga, Nozim Hikmat, Pol Elyuar, Eliotni, Rauf Parfi she'rlarini o'qiganda hayajon tuygan shoir modernchilar ijodidan qoniqmasligi izohlaydi: "O'zini oqim deb ko'rsatishga urinayotgan bu oqovada iste'dod tanqisligi bor. Bu yo'lni ulkan iste'dod shu'lasi yoritmayapti". [3.80]. Shoir ijod ko'ngillarga yetib bormog'i uchun u iste'dod shu'lasi bilan yaratilishi kerakligini, aksincha holatda esa bu ijod o'z qadrini topmasligini uqtiradi. Shu bilan birga XX asr boshida jahon andozalariga solingan A. Qodiriy, Cho'lpon, Hamza kabi ijodkorlar yangi adabiyotni chin iste'dod bilan yuzaga keltirganliklarini dalil keltiradi. Yangilik iste'dodning mahsuli bo'lmas ekan, u rivoj topmasligiga urg'u beradi. Sun'iy tashkil qilingan va iste'doddan ko'ra muhimroq boshqa xususiyatni targ'ib qilgan har qanday oqimlarni Usmon Azim rad



etadi. “Adabiyot fidokor insonlar qalbining yolqinidir” maqolasida ham shoir: “Men oqimlarni juda yomon ko‘raman. Ayniqsa ular sun’iy ravishda tashkil qilingan bo‘lsa”. [4.3] Qolaversa, shoir bu kabi ijodkorlar ichida asl shoirlar juda ozchilikni tashkil qiladi, qolganlari she’r yozishni o‘rganishi lozim bo‘lgan havaskorlar ekanligini ta’kidlaydi. She’rlari hali badiiy jihatdan pishiqlikka yetmay turib, hali o‘rganiladigan bilimlar ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, o‘zlarini modernchilardan hisoblab yurgan shoirlarga tanqidiy nigoh bilan boqadi, go‘yoki ular iste’dodsizligini shu modern yo‘nalishi ostiga berkitishmoqchi ekanligini ta’kidlaydi. Usmon Azim “So‘ngso‘zlar” asarida “Kecha jaydari yo‘llarda xashaki she’r yozib yurgan ba’zilar birdan o‘zlarini modernchi deb e’lon qildilar. Buning uchun qofiyani olib tashlab, mantiqsiz fikrlash o‘zi kifoya qiladi deb o‘yladilar. Ular sarbastni ham ohang boshqarishin, she’rxon sarbastni tutilmay, qoqilmay o‘qishi lozimligini unutdilar. Atroflarini allaqanday sirlilik bilan o‘rashga urindilar. U kim? U modernchi! O! Shu tarzda bechora modern ko‘p o‘rinlarda iste’dodsizlikning qalqoni ham bo‘ldi”. [3.82] Shoir bu kabi she’rlarning ilhomsiz yozilganligi, haqiqiy modern qanday bo‘lishi kerakligi kabi masalar ochiq muammo holatida qolganligini keltiradi.

Yangi yo‘nalishda yozilgan Xurshid Do‘stmuhammadning “Kuza” qissasi, Nurulloh Muhammad Raufxonning hikoyalarini iste’dodning mevasi ekanligi isbotlab,” yangi izlanishlarning haqiqiy mevasi Rauf Parfining she’rlaridanoq ko‘rinish bergan”, deya yangi yo‘nalishda iste’dod bilan ijod qilgan shoir sifatida Rauf Parfini keltiradi. Shoir ta’kidlaydiki, go‘yo modernning eshigida allakimlar turib olib modernchilar ro‘yxatini shakllantirayotgandek tuyilishini, modern ro‘yxatdan emas, adabiyotning turli qatlamlaridan qidirmoqlikni uqtiradi. Shoir “Adabiyot fidokor insonlar qalbining yolqinidir” maqolasida ijodkorlarga xos ikki xil illatni sanab o‘tib birinchisi adabiy qalloblik, ikkinchisi esa xushomadgo‘ylik ekanligini, modernchilarni esa shu ikki illatdan nomus qilib, bu tuyg‘ulariga ozgina oliftagarchilik qo‘shib “modernizm” deb atagan bo‘lsalar kerak deydi. Qolaversa,



adabiyotlar tadrijiga sinchi nigohi bilan boqqan ijodkor modernizmning omadi kelmadi, deya baholaydi. Bu kabi she'riy mashqlar jahon adabiyotida o'qilmay qolgani, hatto ular postmodernizmdan ham voz kechish arafasida turganini ta'kidlaydi. Ko'rinadiki, shoir modernizm yo'nalishiga qarshi emas, hatto bu yo'nalishda yangilik qilib ijod qilayotgan ijodkorlar asarlarini yaxshi yangilik sifatida baholadi, ammo modernizmi qalqon qilib olgan o'rtamiyona ijodkorlar aynan modernchilar guruhini tuzganlaridan hafsalasi pir bo'ladi. Allaqanday "...izmlar" bilan san'atni chegaralash ijod ufqlarini toraytirishga xizmat qilishini, aslida ijod ma'lum bir qolipga sig'ish uchun emas, balki chegaralarni buzib o'z mohiyatini anglatmog'ini ta'kidlaydi. Har qanday "izm" lar o'chishi mumkinligi, ammo buyuk ijodkorlar tomonidan yaratilgan daho asarlar asrlar davomida yashashiga urg'u beradi shoir.

Shoir nazdida har qanday yangi yo'nalish o'z-o'zidan kirib kelmaydi, uni buyuk iste'dodlar yaratadi. Chunki adabiyot ham jamiki butun borliq kabi o'zgarishga, yangilikka va albatta rang-baranglikka ehtiyoj sezadi. Allanarsalarni qolipga sig'dirib bo'lishi mumkindir, ammo adabiyotni emas, ijodni emas. Usmon Azim ta'kidlaydiki, badiiy asar qanday yozilmasin, qaysi metod, yoki qaysi oqimda - u iste'dod bilan yozilsin. "So'ngso'zlar" asarida keltiradiki, adabiyot doim rivojlanishda ekanligi, uni rivojlantirish va yangi yo'nalishga olib chiqish da'vogarlarining emas, iste'dodlilarning qo'lida ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, har bir iste'dod yangi bir yo'nalish bo'lishi mumkinligini uqtiradi. Shoir nazdida faqat iste'dodgina yangi yo'nalishni barpo qilishi mumkin. Darhaqiqat, shaklgina adabiy yangilanishni ifodalamaydi, balki har bir iste'dodli, qalami o'tkir ijodkor o'z iste'dodi bilan adabiy yangilikka hissa qo'shishi mumkin. Usmon Azim ta'kidlaydiki, vaqtlar o'tib o'zbek adabiyoti g'arb-u sharq yutuqlaridan to'yinib o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan beqiyos adabiyotga aylanishiga umidvor bo'ladi. Ya'ni adabiyotimiz faqat g'arbda paydo bo'lgan har qanday oqimni qabul qilib emas, balki yutuq hisoblangan an'analarni qabul qilib adabiyotimizni boyitadi



va g'arb va butun dunyodan o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan, o'z an'ana va qoliplariga ega adabiyotga aylanadi. Adabiyot ko'chirmakashlik san'ati emas, balki eng yaxshi va sinalgan an'analardan to'yinib original yangilik, yangi uslub va yangi g'oya bera olish san'atidir. Usmon Azim modernizm haqida " Adabiyot fidokor insonlar qabining yolqinidir" maqolasida modernizm xususida quyidagiday o'z xulosasini beradi : "modernizm so'zi menda "sotsrealizm" tushunchasiday yoqimsiz taassurot qoldiradi. Menimcha, adabiyotda ikki toifa ijodkorlar bor: iste'dodlilar va iste'dodsizlar".[4.3]

Xulosa qilib aytganda, Usmon Azim modernizmni adabiyotdagi tabiiy yangilanish jarayoni sifatida tan oladi, biroq uni iste'dodsizlikni yashirish vositasiga aylantirish holatlariga qat'iy qarshi chiqadi. Shoir nazarida adabiy oqim va metodlar ikkilamchi bo'lib, badiiy qiymatni belgilovchi asosiy mezon ijodkor iste'dodidir. Uning modernizm haqidagi qarashlari o'zbek adabiyotida estetik yangilanishni iste'dod va badiiy yetuklik mezonlari asosida baholash zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati.-Toshkent: Akademnashr,2010.
2. Yo'ldosh Q. , Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent: Kamalak, 2016.
3. Usmon Azim. So'ngso'zlar. - Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat,2020.
4. Adabiyot fidokor insonlar qabining yolqinidir. Yoshlik jurnali.2(231)-son.2010.